

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**QARSHIYEV NODIRBEK OLIM O'G'LI**

**DAVLAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY SAMARADORLIKNI  
BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Qarshiyev Nodirbek Olim o‘g‘li**

Davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni boshqarish tizimini  
takomillashtirish..... 3

**Каршиев Нодирбек Олим угли**

Совершенствование системы управления финансовой эффективностью  
государственных предприятий..... 31

**Karshiev Nodirbek Olim ugli**

Improving the financial performance management system in state-owned  
enterprises..... 61

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 66

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**QARSHIYEV NODIRBEK OLIM O'G'LI**

**DAVLAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY SAMARADORLIKNI  
BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2025.1.PhD/Iqt5243 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash web-sahifasi  
(www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim tarmog'ida (www.zivonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Eshov Mansur Pulatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Gafuruv Ubaydullo Vaxabovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Uktamov Xusniddin Faxriddinovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi  
DSc. 03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "26" 08 soat 16.89  
majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri Islom Karimov ko'chasi 49 uy.  
Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish  
mumkin (1420 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov  
ko'chasi 49 uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239 43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "2" 08 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "7" 08 dagi 35 raqamli reyestr bayonnomasi).



**G.K. Abduraxmanova**  
ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy  
kengash raisi, i.f.d., professor

**O.Dj. Djurabayev**  
ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy  
kengash kotibi, i.f.d., professor

**Sh.A. Allayorov**  
ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi.** Jahon iqtisodiyoti sharoitida davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni boshqarish tizimini takomillashtirish yuqori moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, davlat aktivlaridan samarali foydalanish hamda raqobatbardoshlikni oshirishda muhim o'rin tutadi. Zero, zamonaviy boshqaruv mexanizmlari, xususan, natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy tahlil instrumentlarini joriy etish orqali davlat korxonalari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish mumkin. Shu yo'sinda, moliyaviy samaradorlikning oshishi nafaqat milliy iqtisodiyotning samaradorligiga, balki investitsiyaviy jozibadorlik va ijtimoiy barqarorlikning yuksalishiga ham bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyo bo'ylab davom etayotgan xususiylashtirish jarayoniga qaramay, davlat korxonalari Osiyo, Yevropa va Lotin Amerikasidagi aksariyat sohalarda ustunlik qiladi. Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik tashkiloti ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, "45 mamlakatda 3000 dan ortiq korxonalar davlatga tegishli va ular kapital tuzilishida 3 trillion dollarni tashkil etadi va 2024-yilda 10 milliondan ortiq kishini ish bilan ta'minlaydi". Shunga ko'ra, ko'plab mamlakatlarda davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni boshqarish tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Jahon amaliyotida davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish, moliyaviy ko'rsatkichlar asosida samaradorlikni baholash metodologiyalarini ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar orqali moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish hamda davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish mexanizmlarini tadqiq etish kabi masalalar e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash, zarar bilan ishlayotgan korxonalarni transformatsiya qilish va faoliyat natijalarini natijaviylik va samaradorlik mezonlari asosida baholash ilmiy izlanishlarning markaziy nuqtasiga aylanmoqda. Bunday tadqiqotlar davlat mulkini boshqarishning shaffof va natijador modellarini yaratishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda davlat korxonalarining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati g'oyat yuqori bo'lib, makroiqtisodiy barqarorlik va izchil iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda davlat korxonalari o'ziga xos ravishdagi "drayver" ahamiyatiga ega bo'lgan tadbirkorlik faoliyati sifatida maydonga chiqmoqda. Shuningdek, ushbu tadbirkorlik subyektlari byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini shakllantirishda "yuqori fiskal omil" bo'lib xizmat qilishi bilan bir qatorda mamlakatdagi bandlik va aholi real daromadlarini oshirishda ham muhim rol o'ynamoqda. Lekin, keyingi yillarda to'lov intizomi bilan bog'liq muammolar natijasidagi yuqori debitorlik qarzlari, yuqori tannarx xarajatlari hisobiga past darajadagi aktivlar rentabellik, majburiyatlar va soliqlar hisobiga yuqori xarajatlar natijasidagi xususiy kapital rentabelligining past darajasi davlat korxonalari moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlillash bilan bog'liq muammolarni kuzatilishiga va pirovard natijada mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlashga

salbiy ta'sir etmoqda. Iqtisodiyotda davlat korxonalarining ulushini kamaytirish, xususi sektor va xorijiy kompaniyalar uchun sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida O'zbekiston hukumati davlat korxonalarini xususiylashtirish va iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish bo'yicha faol ish boshladi. 2019–2023-yillar davomida davlat korxonalari soni izchil kamaydi. Past darajadagi rentabellik va sezilarli zararlarni kamaytirishga qaratilgan moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarini boshqarish, davlat korxonalari moliyaviy barqaror rivojlanishini ta'minlash zarurati ushbu dissertatsion tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF–37-son “O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son ““O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2022-yil 8-apreldagi PF–101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususi sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida”, 2020-yil 27-oktyabrdagi PF–6096-son “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”, 2019-yil 14-may PF–5718-son “Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2015-yil 24-apreldagi PF–4720-son “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublari joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari hamda ushbu faoliyatga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining [I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Davlat ishtirokidagi korxonalar moliyaviy samaradorligini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali korxonalar investitsion jozibadorligini oshirishning ilmiy-nazariy va konseptual asoslari bir qator xorijiy iqtisodchi olimlar, jumladan: A.Abramov, R.Radygin, R.Entov, M.Chernova, V.Aivazian, Y.Ge, J.Qiu, A.Assagaf, A.Lestari, M.Hamzah, S.Adnan, N.Zainal, B.Noordin, F.Kamarudin, J.Johar, G.Ahuja, S.Majumdar, E.Altman, E.Astami, G.Tower, J.Neilson, S.Borkovic, P.Tabak, K.Dewenter, P.Malatesta, R.Elliott, Y.Zhou, F.Taghizadeh-Hesary, Y.Naoyuki, C.Kim, A.Mortha va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>Abramov A. Radygin, A. Entov, R. Chernova, M. (2017). State Ownership and Efficiency Characteristics. Russian Journal of Economics, 3, pp. 129–57.; Aivazian, V.A. Ge, Y. Qiu, J. (2005). Can Corporatization Improve the Performance of State-Owned Enterprises even without Privatization? Journal of Corporate . (2000).; Assagaf, A. Lestari, S.Y. Hamzah, M.Z. (2016). The effects of the implementation of earning management and subsidy policy: A case study of government company. OIDA International Journal of Sustainable Development, 9(10), pp. 23-24.; Adnan, S. Zainal, N. Noordin, B. A. A. Kamarudin, F. Johar, J. (2024). Measuring technical efficiency of state-

Davlat ishtirokidagi korxonalar moliyaviy samaradorligini boshqarishning ilmiy va amaliy asoslarini rivojlanishiga o'zbekistonlik qator iqtisodchi olimlar, xususan, S.S.Gulyamov, O.Narziyev, S.Safoyeva, J.Jurayev, A.U.Burxanov, A.V.Vahobov, N.X.Jumayev, D.R.Zaynalov, O.K.Iminov, O.O.Olimjonov, T.S.Malikov, B.Xasanov, M.B.Xamidullin, R.X.Karlibayeva, M.Q.Pardayev, S.Z.Sharipova, B.E.Tashmurodova, M.P.Eshov, S.E.Elmirzayev, U.Ubaydullayev va boshqalar katta hissa qo'shishgan<sup>2</sup>.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti indikatorlari asosida "Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi"dagi o'rnini baholashning O'zbekiston uchun "milliy modeli"ni ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** davlat korxonalari moliyaviy samaradorligini boshqarish va baholash tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

---

owned enterprises in Asia Pacific and European regions: a data envelopment analysis. *Cogent Business and Management*, 11(1); Ahuja, G. and Majumdar, S. K. (1998). An Assessment of the Performance of Indian State-Owned Enterprises. *Journal of Productivity Analysis*, 9(2), pp. 113–32.; Altman, E. I Predicting financial distress of companies: Revisiting the Zscore and zeta models. *Journal of Banking and Finance*, 1(1), pp. 1-61.; Astami, E. W. Tower, G. R. Neilson, J. (2010). The Effect of Privatisation on Performance of State-Owned-Enterprises in Indonesia. *Asian Review of Accounting*, 18(1), pp. 5–19 *Finance*, 11(5), pp. 791–808.; Borkovic, S. and Tabak, P. (2020). Economic performance of state-owned enterprises in emerging economies: A cross-country study. EBRD paper.; Dewenter, K. and Malatesta P. (2001) State-Owned and Privately Owned Firms: An Empirical Analysis of Profitability, Leverage, and Labor Intensity. *The American Economic Review*, 91(1), pp. 320–334.; Elliott, R. and Zhou, Y. (2013). State-Owned Enterprises, Exporting and Productivity in China: A Stochastic Dominance Approach. *The World Economy*, 36(8), pp. 1000– 28.; Forfas, (2010). The Role of State-Owned Enterprises: Providing Infrastructure and Supporting Economic Recovery. <https://assets.gov.ie/294492/05ad5b67-29ce-4b56-a1ab-dff3d7074b4d.pdf>, Astami, E. W. Tower, G. R. Neilson, J. (2010). The Effect of Privatisation on Performance of State-Owned-Enterprises in Indonesia. *Asian Review of Accounting*, 18(1), pp. 5–19 *Finance*, 11(5), pp. 791–808.; Borkovic, S. and Tabak, P. (2020). Economic performance of state-owned enterprises in emerging economies: A cross-country study. EBRD paper.; Dewenter, K. and Malatesta P. (2001) State-Owned and Privately Owned Firms: An Empirical Analysis of Profitability, Leverage, and Labor Intensity. *The American Economic Review*, 91(1), pp. 320–334.; Elliott, R. and Zhou, Y. (2013). State-Owned Enterprises, Exporting and Productivity in China: A Stochastic Dominance Approach. *The World Economy*, 36(8), pp. 1000– 28.; Taghizadeh-Hesary, F. Naoyuki, Y. Kim, C. J. Mortha, A. (2019). A comprehensive evaluation framework on the economic performance of state-owned enterprises, ADBI Working Paper Series, No. 949.

<sup>2</sup> Gulyamov, S. Narziyev, O. Safoyeva, S. Jurayev, J. (2021). State Role and Securities Market Development In Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3 (6), pp. 20-33.; Zaynalov J.R Neobxodimost sozdaniya blagopriyatstvuyushch usloviy dlya realizatsii denejno-kreditnoy politiki i razvitiya kommercheskix bankov. Belorussiya. Jurnal "Finansoviy prostir", 2014. – № 4. – S.72-76.; Xamidullin M.B. Povysheniye investitsionnoy privlekatelnosti i aktivizatsiya uchastiya aktsionernykh obshchestv na rynkax kapitala // *Новые tendensii v ekonomicheskoy nauke i obrazovanii*. – M.: Monografiya, 2014. – 148 s.; Karlibayeva R.X. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo'llari. Monografiya. -T.: LESSON PRESS, 2018-y.-66-71 betlar.; Sharipova, S.Z. (2023). Improving the assessment of the financial condition of enterprises using enyi's relative stability model. X International Scientific Conference, Philadelphia, USA, December, 14-15; T.A. Саттаров и др. Проблемы обеспечения финансовый стабильности предприятий. – Т.: "SHARQ", 2011. – 232 б. Курбанов Х.А. Корпоративные финансы. -Т.: Iqtisod-moliya, 2007. -184 с. Элмирзаев С.Э. Организационные характеристики и вопросы совершенствования дивидендной политики. Электронный журнал. "Международные финансы и бухгалтерский учёт". 2016. №2. Ubaydullaev, U. (2020). State-owned enterprises in Uzbekistan: taking stock and some reform priorities. ADBI Working Paper Series, No.1068.

davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlik va uni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslarini kompleks yoritib berish;

davlat korxonalarining moliyaviy samaradorligi boshqarish tamoyillari va uning funksional elementlarini tizimlashtirish;

davlat korxonalarining moliyaviy samaradorligini boshqarish ko'rsatkichlari tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslarini tadqiq qilish;

O'zbekistondagi davlat korxonalari moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligining amaldagi holatiga tizimli baho berish;

davlat korxonalari moliyaviy samaradorligining amaldagi holatini kompleks taqqoslama tahlil qilish;

davlat korxonalarining moliyaviy samaradorligini baholash usullari va unga ta'sir etuvchi omillar kesimida ekonometrik tahlil qilish;

davlat korxonalari moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etishning moliyaviy mexanizmi bo'yicha amaliy tavsiyalarni tizimlashtirish;

davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishning istiqbolli yo'llari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy ahamiyatga ega tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan davlat korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida davlat korxonalarida moliyaviy-xo'jalik faoliyati va uning samaradorligi bilan bog'liq moliyaviy munosabatlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida ilmiy-nazariy qarashlar asosida ilmiy abstraksiyalash, kuzatish, guruhlash, taqqoslash, korrelyatsion, regression tahlil, iqtisodiy-matematik va imitatsion modellash kabi ilmiy bilishning nazariy hamda empirik usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

**uslubiy yondashuvga ko'ra "moliyaviy samaradorlikni boshqarish tizimi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni** korporativ va makroiqtisodiy darajada moliyaviy resurslarni strategik va taktik boshqarishning mukammal instrumentlari majmuasi sifatida iqtisodiy subyektning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan kompleks funksional jarayonlar orqali moliyaviy ko'rsatkichlarning dinamikasini ilmiy asoslangan mezonlar va KPI ko'rsatkichlari orqali baholashga hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ma'lumotlar tahlili va risklarni modellash asosida amalga oshirishga yo'naltirilgan integrallashgan tizim jihatidan takomillashtirilgan;

davlat korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini hisobga olgan holda moliyaviy samaradorlikni baholash uchun KPI ko'rsatkichlaridan iborat iyerarxik model strategik (kapital rentabelligi, aktivlar aylanmasi), taktik (operatsion marja, xarajatlar koeffitsiyenti) va ijtimoiy (ish o'rinlari saqlanishi, soliq tushumlari, jamiyatga ta'sir) mezonlar toifasi kiritish asosida takomillashtirilgan;

davlat korxonalarida integrallashgan axborot tizimlari (ERP, CRM, BI)ni joriy etish asosida xarajatlar, resurslar va moliyaviy natijalar bo'yicha real vaqt



rejimida tahlil va monitoring imkoniyatlarini kengaytirish orqali operativ xarajatlarni qisqartirish ( $25\% \leq OXDK \leq 30\%$ ) hamda qaror qabul qilish muddatini tezlashtirish ( $35\% \leq MTQ \leq 40\%$ ) taklifi asoslangan;

O'zbekistonda davlat korxonalarida joriy aktivlar aylanuvchanligi va operatsion xarajatlarni iqtisod qilishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili asosida rentabellik ko'rsatkichlarini oshirishning 2028-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni oshirishning asosiy omili sifatida aylanma mablag'lar aylanish tezligini oshirish orqali sof moliyaviy natijalar konsentratsiyalashuv darajasini oshirish imkoniyatlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

davlat korxonalarida aylanma mablag'lari tarkibidagi muomala fondlarini kamaytirish orqali joriy majburiyatlarni qisqartirish natijasida joriy likvidlik va foiz va soliqlarni to'lashdan keyingi foydani oshirish bo'yicha tavsiflar tizimlashtirilgan;

davlat korxonalarida asosiy fondlarni modernizatsiyalash hisobiga tannarxni kamaytirish imkoniyatlari baholangan va ishlab chiqarishni intensiv kursga o'tkazish orqali yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish bo'yicha tavsiyalar berilgan;

ichki moliyaviy audit va monitoring tizimi tizimining takomillashgan varianti tavsiya etilib, ushbu tizim orqali samaradorlikning tayanch ko'rsatkichlarini aniqlash imkoniyatlariga ega bo'lingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ilmiy-tadqiqot ishida foydalanilgan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega yondashuv va usullar, olingan natijalarning ishonchliligi, foydalanilgan ma'lumotlar bankining rasmiy manbalardan, jumladan, "O'ztransgaz" va "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatlari yillik rasmiy moliyaviy hisobotlaridan olinganligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining Budget va Iqtisodiy Masalalar Qo'mitasi tomonidan tegishli xulosalar va takliflar amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy va uslubiy xulosa va tavsiyalardan iqtisodiy islohotlarning zamonaviy sharoitlarida davlat korxonalarini barqaror moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, tadqiqot mavzusiga oid maxsus ilmiy tadqiqot ishlarining uslubiy apparatini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tahliliy materiallar hamda ishlab chiqilgan takliflardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining Budget va Iqtisodiy Masalalar Qo'mitasi tomonidan istiqbolli reja va dasturlar ishlab chiqish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalar)ni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Davlat korxonalari moliyaviy samaradorligini boshqarish va baholash tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "moliyaviy samaradorlikni boshqarish tizimi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni korporativ va makroiqtisodiy darajada moliyaviy resurslarni strategik va taktik boshqarishning mukammal instrumentlari majmuasi sifatida iqtisodiy subyektning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan kompleks funksional jarayonlar orqali moliyaviy ko'rsatkichlarning dinamikasini ilmiy asoslangan mezonlar va KPI ko'rsatkichlari orqali baholashga hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ma'lumotlar tahlili va risklarni modellashtirish asosida amalga oshirishga yo'naltirilgan integrallashgan tizim jihatidan takomillashtirish bilan bog'liq nazariy materiallardan oliy ta'limning 5230600-Moliya va moliyaviy texnologiyalar bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan "Portfel menejmenti" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 24-maydagi 150-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ma'lumotlar tahlili va risklarni modellashtirish asosida amalga oshirishga yo'naltirilgan integrallashgan tizim jihatidan takomillashtirilgan moliyaviy samaradorlikni boshqarish tizimi tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

Davlat korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini hisobga olgan holda moliyaviy samaradorlikni baholashning KPI ko'rsatkichlaridan iborat iyerarxik modelini strategik (kapital rentabelligi, aktivlar aylanuvchanligi), taktik (operatsion marja, xarajatlar koeffitsiyenti) va ijtimoiy (ish o'rinlarini saqlab qolish, soliq tushumlari, jamiyatga ta'siri) mezonlar toifasini kiritish asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasining "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi O'RQ-821-son Qonunining 39-moddasini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining Byudjet va Iqtisodiy Masalalar Qo'mitasi 2025-yil 27-iyun 04/2-11-30-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida davlat ishtirokidagi korxonalarda moliyaviy samaradorlikni baholashning KPI tizimi ularning yaqin istiqbolga mo'ljallangan strategik rivojlanish rejalari asosida takomillashtirilgan kompleks baholash va samarali qarorlar qabul qilish, ijro organi faoliyati samaradorligini aniqlash hamda moliyaviy samaradorlikni baholashning miqdoriy mezonlariga xizmat qiladi;

Davlat korxonalarida integrallashgan axborot tizimlari (ERP, CRM, BI)ni joriy etish asosida xarajatlar, resurslar va moliyaviy natijalar bo'yicha real vaqt rejimida tahlil va monitoring imkoniyatlarini kengaytirish orqali operativ xarajatlarni qisqartirish ( $25\% \leq OXDK \leq 30\%$ ) hamda qaror qabul qilish muddatini tezlashtirish ( $35\% \leq MTQ \leq 40\%$ ) taklifi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-martdagi O'RQ-821-son "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonuni 41-moddasi (Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruv tizimini joriy etish) 5-xatboshida ko'zda tutilgan vazifalarni samarali ijrosini ta'minlashda

foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining Byudjet va Iqtisodiy Masalalar Qo'mitasi 2025-yil 27-iyun 04/2-11-30-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida aktivlar va passivlar operatsion moliyaviy menejmenti tizimi samaradorligini oshirish orqali davlat ishtirokidagi korxonalar biznes-rejalari ko'rsatkichlari va samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari bajarilishi, shu jumladan ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanilishi, soliqlar va yig'implarning to'langanligi, mavjud qarzdorlik, mahalliyashtirish hamda investitsiya loyihalari haqidagi axborotni, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa axborotni to'liq va ishonchli tizimlashtirish imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda davlat korxonalarida joriy aktivlar aylanuvchanligi va operatsion xarajatlarni iqtisod qilishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili asosida rentabellik ko'rsatkichlarini oshirishning 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" Qonuni loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining Budjet va Iqtisodiy Masalalar Qo'mitasi 2025-yil 27-iyun 04/2-11-30-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi Byudjetdan tashqari Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg'armasining daromadlari prognozini ishlab chiqishda xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 7 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan xalqaro jurnallarda 1 ta, mahalliy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida 4 ta tezislar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 141 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**


**Kirish** qismida dissertatsiyaning dolzarbligi asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlik va uni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida davlat korxonalarining moliyaviy samaradorligini boshqarish tamoyillari, funksional elementlari va konseptual asoslari tahlil qilinadi. Davlat korxonalari ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlovchi muhim institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular bozor mexanizmlarining yetarli

ishlamasligi sharoitida davlat aralashuvi vositasida tashkil topadi. Osiyo mamlakatlari tajribasi, xususan, Xitoyda davlat sektori 52 mingdan ortiq korxona va 30 trillion dollarlik aktivlarga ega ekani, ularning iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sirini ko'rsatadi.

Davlat korxonalari subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va bankrotlikdan himoya orqali qo'llab-quvvatlanadi, evaziga esa aholiga arzon va muhim xizmatlar taqdim etadi. Shu bilan birga, ular ko'pincha past rentabellikka ega bo'lgan, ammo ijtimoiy ahamiyatli loyihalarni moliyalashtiradi.

Boshqaruvda davlat missiyalariga yo'naltirilgan yondashuv ustun bo'lib, samaradorlik ko'rsatkichlari ko'pincha moliyaviy natijalardan ko'ra ijtimoiy vazifalar bajarilishiga bog'liq. Xalqaro amaliyotda bunday korxonalar korporativ boshqaruv, moliyaviy ochiqlik va ekologik samaradorlik kabi mezonlar asosida tasniflanadi.



**1-rasm. Davlat korxonalari va ularni tasniflashda qo'llaniladigan xalqaro hujjatlar va standartlar chizmasi<sup>3</sup>**

1-rasmdan ko'rish mumkinki, davlat korxonalarini yuridik va iqtisodiy maqomi bir qator mezonlarga asoslanib, ular quyidagi tashkilot va standartlar asosida tizimlashtirilgan.

Korporativ boshqaruv va davlat ishtirokidagi korxonalarga oid OECD qoidalariga muvofiq (**OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises**) davlat ishtirokidagi korxonalar boshqaruvi, shaffoflik, javobgarlik va strategik qaror qabul qilish jarayonlarini belgilaydi. OECD qoidalari asosida korxonalarni egalik strukturasiga, boshqaruv mustaqilligiga va natijaviylik darajasiga qarab guruhlash mumkin.

Davlat sektori buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga (**International Public Sector Accounting Standards (IPSAS)**) muvofiq davlat byudjeti va davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy hisobot berishini tartibga soluvchi standart bo'lib, ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini solishtirish va baholashda asosiy me'yor sifatida xizmat qiladi.


Xalqaro standartlashtirish tashkiloti **ISO 9001 sifat menejmenti** va **ISO 14001** atrof-muhit menejmenti kabi standartlar korxonalar sifatini, innovatsion

<sup>3</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

yondashuvlarni va ekologik javobgarlikni baholashda qo'llanilishi mumkin. Garchi ular maxsus davlat ishtirokidagi korxonalar uchun mo'ljallanmagan bo'lsa-da, ularning joriy etilishi korxonaning umumiy faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Jahon banki (**WB**) va Xalqaro moliya korporatsiyasi (**IFC**) standartlari/ Ushbu tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar va amaliy qo'llanmalar davlat ishtirokidagi korxonalarning samarali boshqaruv, moliyaviy intizom va investitsion faoliyatini baholashda qo'llaniladi.

Ushbu xalqaro hujjatlar asosida davlat ishtirokidagi korxonalarni egalik tuzilishi, boshqaruv tizimi, moliyaviy ko'rsatkichlari, innovatsion salohiyati va ijtimoiy-ekologik javobgarlik kabi jihatlar bo'yicha tasniflash mumkin. Bu esa davlatning strategik iqtisodiy siyosatini shakllantirishda va islohotlarni amalga oshirishda muhim mezon sifatida xizmat qiladi.



**2-rasm. Davlat korxonalarining moliyaviy samaradorligini boshqarish tamoyillari<sup>4</sup>**

Davlat korxonalari o'z faoliyatining uzoq muddatli maqsadlarini aniq belgilab, moliyaviy rejalashtirish ( $x_1$ ), byudjetlashtirish va investitsiya loyihalarini natijaviy baholash orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan strategik yondashuvni joriy etishi zarur.

Korporativ nazorat tizimi ( $x_2$ ), mustaqil auditorlik, ichki nazorat va boshqaruv kengashi faoliyati orqali korxonalar boshqaruvi yuqori darajada shaffof va javobgarlikka asoslangan bo'lishi lozim. Bu tamoyil investorlar ishonchini oshirish va qarorlar qabul qilishda samaradorlikni ta'minlaydi.


Moliyaviy resurslar ( $x_3$ ) – kapital, ishchi kuchi va texnologiyalar – optimal tarzda taqsimlanishi, ya'ni daromadlarni oshirish, xarajatlarni minimallashtirish va investitsiyalarni raqobatbardosh sohalarga yo'naltirish orqali korxonaning moliyaviy holatini mustahkamlash ko'zda tutiladi.

Bozor, kredit va operatsion risklarni aniqlash ( $x_4$ ), baholash va ularni kamaytirish bo'yicha tizimli yondashuv joriy etiladi. Moliyaviy risklarni samarali boshqarish korxonaning barqaror faoliyatini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Moliyaviy menejment fani zamonaviy rivojlanishning konseptual asoslariga oid ilmiy qarashlarni umumlashtirish asosida davlat korxonalarining moliyaviy

<sup>4</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

samaradorligini boshqarishning asosiy funksional elementlarini quyidagi tarzda tizimlashtirish mumkin.



**3-rasm. Davlat korxonalarining moliyaviy samaradorligini boshqarishning asosiy funksional elementlari<sup>5</sup>**

Davlat korxonalari moliyaviy samaradorligini boshqarishdagi moliyaviy rejalashtirish funksional elementlari davlat korxonalarining yillik va uzoq muddatli byudjetini tuzish, daromad va xarajatlar prognozlarini shakllantirish hamda investitsiya rejalari ishlab chiqilishini oʻzida mujassamlashtiradi. Reja moliyaviy samaradorlikni maqsadli boshqarishda muhim ahamiyat kasb etsa-da, rejalashtirish jarayonini takomillashtirish boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.


Moliyaviy koʻrsatkichlar (rentabellik, likvidlik, qarz darajasi va boshqalar) muntazam nazorat qilinishi, hisobotlar tayyorlanishi va tahlil qilinishi orqali moliyaviy samaradorlikning oʻzgarishlari kuzatilib boriladi. Moliyaviy risklarni identifikatsiya qilish, ularni oʻlchash va boshqarish boʻyicha tizimli choralar (masalan, sugʻurta, diversifikatsiya, risk mitigatsiya strategiyalari) joriy etiladi.

Ushbu tamoyillar va funksional elementlarning uygʻunlashuvi orqali davlat korxonalari oʻz moliyaviy samaradorligini oshirish, resurslardan maksimal darajada foydalanuvchi tizimni shakllantirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga erishadi. Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun bunday yondashuv nafaqat ichki samaradorlikni, balki iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini ham oshiradi.

Demak, davlat korxonalarining moliyaviy samaradorligini boshqarish koʻrsatkichlari tizimi ularning faoliyatini samarali rejalashtirish, monitoring qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Moliyaviy samaradorlikni boshqarish koʻrsatkichlari tizimi – bu korxonalarning rentabelligi, likvidligi, qarzdorlik koʻrsatkichlari, aktivlar samaradorligi kabi asosiy moliyaviy koʻrsatkichlarni, shuningdek, ijtimoiy va ekologik masʼuliyat kabi qoʻshimcha oʻlchovlarni tizimli tarzda oʻlchash, tahlil qilish va monitoring qilish vositasidir. Ushbu tizim nafaqat miqdoriy indikatorlar (masalan, ROA, ROE, ishbilarmon faollik indeksleri, qarz/aktivlar nisbati) orqali baholanishi, balki sifatli tahlil, strategik rejalashtirish va benchmarking metodlari bilan yana optimallashtirish lozim.

<sup>5</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Umumiy tarzda ushbu ko‘rsatkichlarni quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin.



**4-rasm. Moliyaviy samaradorlikni boshqarish ko‘rsatkichlari tizimi umumlashgan elementlari chizmasi<sup>6</sup>**

Ushbu ko‘rsatkichlar vositasida davlat korxonalarining daromadlilik darajasi baholanadi. Bir tomondan, moliyaviy samaradorlikni oshirish uchun yuqori rentabellik zarur deb hisoblanadi, ikkinchi tomondan esa, davlat korxonalari ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatishda qisqa muddatli foydani emas, uzoq muddatli barqaror rivojlanishni maqsad qilishi kerak.

Muvozanatlashgan moliyaviy holat ko‘rsatkichlari. Ushbu indikatorlar korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash qobiliyatini va moliyaviy xavf-xatar darajasini aniqlaydi. Bu yerda davlat korxonalarida risklarni boshqarish masalasi davlat siyosati va ijtimoiy manfaatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali baholash yetarli bo‘lmashligi mumkin.

Ishbilarmon faollik ko‘rsatkichlari korxonaning resurslaridan qanchalik samarali foydalanayotganini ko‘rsatadi. Davlat korxonalarida bu o‘lchovlar, shuningdek, davlatning strategik investitsiyalari va barqaror rivojlanish rejalari bilan sinxronlashtirilishi talab etiladi.

Korporativ boshqaruv, shaffoflik, ijtimoiy va ekologik mas’uliyat ko‘rsatkichlari an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlarga qo‘shimcha ravishda, davlat korxonalari faoliyatining ijtimoiy samaradorligi va ekologik barqarorligini o‘lchashda qo‘llaniladi. Shu nuqtayi nazardan, davlat korxonalari uchun faqat raqamli ko‘rsatkichlarga emas, balki boshqaruv tizimi, auditorlik mexanizmlari va strategik rejalashtirish elementlariga ham e’tibor qaratilishi lozim.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda davlat korxonalari moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligini boshqarish holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistondagi davlat korxonalari moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligi, davlat korxonalari moliyaviy samaradorligining amaldagi holatlari kompleks taqqoslama tahlil qilingan. Shuningdek, davlat korxonalarining

<sup>6</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.



moliyaviy samaradorligini boshqarish usullari va ekonometrik tahlillari amalga oshirilgan.

O'zbekistonda davlat korxonalari milliy iqtisodiyotda muhim o'rin egallaydi. So'nggi yillarda ularning soni kamayganiga qaramay, YalMdagi ulushi yuqori bo'lib qolmoqda. Mustaqillik yillarida 33 mingdan ortiq davlat korxonasi va obyektlari xususiylashtirilib, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushi izchil oshdi. Bu jarayonda institutsional va xorijiy investorlarning roli sezilarli darajada kuchaydi. 1-jadvalda keltirilganidek, o'rta va yirik korxonalar soni milliy iqtisodiyot tuzilmasi va rivojlanish tendensiyalarini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

**1-jadval**

**Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan o'rta va yirik korxona hamda tashkilotlar soni<sup>7</sup> (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, birlikda)**

<b>Tarmoqlar</b>	<b>2019</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>	<b>2023</b>
<b>Jami</b>	60587	63366	63994	66095	62515
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	505	532	602	604	609
Sanoat	1556	1646	1932	2036	2223
Qurilish	157	178	255	285	334
Savdo	445	508	595	590	719
Tashish va saqlash	209	203	245	206	215
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	156	175	164	156	166
Axborot va aloqa	237	280	296	340	381
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	1414	1533	1557	1577	1621
Boshqa turlari	55908	58311	58348	60301	56247


O'rta va yirik korxonalar katta moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lib, yangi texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning barqaror faoliyati innovatsion jarayonlarni tezlashtirib, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Bu korxonalar yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksportni kengaytirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy dvigatel sifatida xizmat qiladi. Soliq tushumlari va investitsiya salohiyati orqali ular davlat byudjeti daromadlarining muhim manbasi hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorligi yuqori bo'lgan o'rta va yirik korxonalar iqtisodiy sikllar sharoitida ham faoliyatini davom ettira oladi. Ularning soni, holati va rivojlanish tendensiyalari iqtisodiy barqarorlik, investitsion muhit va innovatsion faollikning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Sohalar kesimida bu korxonalarning o'sish sur'atlari farqlanadi: ba'zi tarmoqlarda sezilarli o'sish, boshqalarida esa nisbiy barqarorlik kuzatiladi. Bu esa iqtisodiy resurslar taqsimoti va sektoral investitsiya strategiyasini shakllantirishda muhim omil

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (<https://www.stat.uz>) ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.



bo‘lib xizmat qiladi. O‘rta va yirik korxonalar soni va ularning faoliyat barqarorligi milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyati, moliyaviy barqarorligi va eksport imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Ularning investitsion jozibadorligi, asosan, rentabellik, moliyaviy muvozanat va ishbilarmonlik faolligi kabi ko‘rsatkichlarga bog‘liq bo‘lib, bu omillar bozor qiymatining oshishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.



**5-rasm. 2019–2023-yillarda O‘zbekistondagi davlat korxonalari soni to‘g‘risidagi ma’lumot<sup>8</sup>**

Davlat korxonalariga oid statistik ko‘rsatkichlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, 2019–2023-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida faoliyat olib borayotgan davlat korxonalari soni pasayish tendensiyani namoyon qilmoqda. Xususan, 2019-yilda jami davlat korxonalari 2950 tani tashkil qilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich pasayish tendensiyasida kuzatilib 2023-yilda 2125 tani tashkil qilgan. Demak, ushbu tahlil qilinayotgan 2019–2023-yillar davomida davlat korxonalari soni qariyb 28 %ga kamaygan.

**2-jadval**

**O‘zbekistondagi faoliyat yuritayotgan davlat korxonalari soni<sup>9</sup>**

№	Ko‘rsatkichlar	Soni	Foizda
1.	O‘zbekistondagi faoliyat yuritayotgan davlat korxonalari	2125	100
2.	Davlat ulushi 50 %dan yuqori bo‘lgan faoliyat yuritayotgan faol korxonalar	1833	86,3
3.	Davlat ulushi 50 %dan yuqori bo‘lgan korxonalar soni (faol bo‘lmagan, bankrot)	292	13,7

Umuman olganda, davlat korxonalarining umumiy sonini faoliyat darajasi bo‘yicha faol, nafaol (tugatish yoki bankrotlik bosqichida) va bankrot korxonalarga turkumlagan holda tahlil qilish mumkin.

<sup>8</sup> Jahon banki (2023) va Kun.uz (2024) rasmiy manbalar tomonidan to‘plangan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

<sup>9</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi. (manba: <https://davaktiv.uz/uz/menu/davrij>)

2022-yil ikkinchi yarim yilligidan boshlab Xalqaro valyuta jamg'armasi texnik ko'magida ishlab chiqilgan metodologiyaga muvofiq yirik davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy holati baholab borilmoqda.

2023-yil yakuni bo'yicha 27 ta davlat ishtirokidagi korxonalarning jami aktivlari 2022-yilning shu davriga nisbatan 16,0 foizga ko'payib, 625,0 trln so'mni tashkil qildi (3-jadval).

### 3-jadval

#### O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan 27 ta yirik davlat korxonalarining muvozanatlashgan moliyaviy holati va samaradorlik ko'rsatkichlari<sup>10</sup>


№	Moliyaviy ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2022-yilga nisbatan 2023-yildagi o'sish, %da
1.	Jami aktivlar, trln so'm	487,3	511,4	538,4	624,8	116,0
2.	Jami xususiy kapital, trln so'm	295,6	290	252,1	288,5	114,4
3.	Jami majburiyatlar, trln so'm	191,7	221,4	286,3	336,3	117,5
4.	Sof foyda, trln so'm	5,4	7,8	12,9	32,1	248,8
	ROA	0,01	0,02	0,02	0,05	214,4
	ROE	0,02	0,03	0,05	0,11	217,4

3-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, tahlil qilinayotgan eng yirik 27 nafar davlat korxonalarining jami aktivlari 2020-yilda 487,3 trln so'mni, shundan 295,6 trln so'mi xususiy kapitalga to'g'ri kelgan. 2022-yilda jami xususiy kapital 252,1 trln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 288,5 foizni tashkil qilib 2022-yilga nisbatan o'sish 114,4 foizni tashkil qilmoqda. Demak, jami aktivlarning 2022-yilga nisbatan 2023-yildagi o'sishiga (116,0 foiz) nisbatan xususiy kapitalning o'sish sur'atini (114,4 foiz) past darajada bo'layotganligi aktivlarga avalanslanayotgan kapital tarkibida qarz kapitali hisobiga aktivlarni moliyalashtirish amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Boshqacha qilib aytganda foyda normasining nisbatan past darajasi sharoitida, ichki iqtisodiy salohiyat hisobiga aktivlarni moliyaviy ta'minlashning o'z manbalarini zaif bo'layotganligi bilan izohlash mumkin.

Ushbu davlat korxonalaridagi aktivlar rentabelligi ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xususan, aktivlar rentabelligi 2021–2022-yillarda 0,02 ni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda 0,05 ga o'sgan. Lekin ushbu iqtisodiy rentabellikni milliy iqtisodiyotdagi tadbirkorlik subyektlari o'rtacha ko'rsatkichlariga solishtirganda past hisoblanadi. Qarz mablag'larini qiymatini bozor qiymatidan past darajada jalb qilish natijasida moliyaviy dastakning samarasiga ega bo'linayotganligi, moliyaviy natijalar samaradorligining izchil ortib borayotganligidan dalolat beradi. Xususan, xususiy kapital rentabelligi (ROE) tahlil qilinayotgan davrlarda izchil ortib borib, 2023-yilda 0,11 ni tashkil qilmoqda.

<sup>10</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi. (manba: <https://davaktiv.uz/uz/menu/davrij>)

Lekin shuni ta’kidlash joizki, aktivlar va xususiy kapital rentabelligi bo’yicha yuqoridagi 27 davlat korxonalarining ko’rsatkichlari o’rtacha bozor darajasidan pastligini namoyon qilmoqda. Buni quyidagi 6-rasm ma’lumotlardan ko’rishimiz mumkin.



**6-rasm. O‘zbekistondagi 70 ta yirik korxonalarda kapital va aktivlar rentabelliklarining o‘rtacha tortilgan darajasi, (%da)<sup>11</sup>**

Ushbu rasmdan ham ko’rish mumkinki, 2018–2023-yillar mobaynida aktivlar rentabelligi 10 foizdan yuqori bo‘lgan bo‘lsa, xususiy kapital rentabelligining o‘rtacha tortilgan darajasi 15 foizdan yuqori hisoblanadi. Demak, yuqorida biz tahlil qilgan 27 ta davlat korxonalarida har ikkala rentabellik turlari bo’yicha o‘rtachadan past ko’rsatkichni tashkil qilmoqda.

Davlat korxonalari iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida faoliyat yuritib, ular faoliyatining moliyaviy samaradorligi ko‘p jihatdan ishlab chiqariladigan mahsulotlarning ijtimoiy ahamiyati, mahsulot ishlab chiqarish uchun moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlar xususiyatlari va davlat buyurtmalari tizimiga bog‘liq bo‘lmoqda.

Yuqoridagi kompleks tahlillarga asoslangan holda moliyaviy nobarqaror va samaradorlik ko‘rsatkichi past bo‘lgan “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati (AJ) hamda moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichi nisbatan barqaror bo‘lgan “O‘zmetkombinat” AJ moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini solishtirma tahlillarini keltirishimiz mumkin.

Quyidagi 4-jadvaldagi statistik ma’lumotlarga asoslanib, “O‘ztransgaz” AJ va “O‘zmetkombinat” AJ moliyaviy samaradorligi, rentabellik ko‘rsatkichlari, qarzdorlik darajasi va kapital tuzilmasi bo’yicha batafsil tahlil qilamiz. Shuningdek, korxonalar o‘rtasidagi farqlar va o‘zgarishlarning asosiy sabablarini izohlab beradigan bo‘lsak, “O‘ztransgaz” AJ jami daromadlarida

<sup>11</sup><https://cbu.uz/upload/medialibrary/e9b/3u4ohncrlu7otzuv1o6aujh6s4yr6kqp/2023-yil-uchun-moliyaviy-barqarorlik-sharhi.pdf>

sof foydaning ulushi yillar davomida manfiy yoki juda past bo'lgan. Bu shuni ko'rsatadiki, O'ztransgaz AJ xarajatlari tushumlaridan doimiy ravishda oshib ketmoqda.

#### 4-jadval

#### Davlat korxonalari moliyaviy samaradorligi ko'rsatkichlari dinamikasi, foizda<sup>12</sup>

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
<b>“O'ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati</b>					
Jami daromadlarda sof foyda ulushi	-10.6	-20.1	-13.7	-13.1	57.7
Xususiyl kapital rentabelligi (ROE)	-98.3	116.8	44.1	27.6	10715.3
Aktivlar rentabelligi (ROA)	-5.5	-13.8	-8.1	-6.3	24.2
Qarzdorlik koeffitsiyenti (jami majburiyatlarni jami aktivlardagi ulushi)	94.4	111.8	118.5	122.8	99.8
Majburiyatlarni xususiyl kapitalga nisbati (jami majburiyatlarni xususiyl kapitaldagi ulushi)	1677.2	-944.4	-641.5	-537.8	44152.1
<b>“O'zmetkombinat” AJ</b>					
Jami daromadlarda sof foyda ulushi	6.7	4.2	17.6	13.6	6.2
Xususiyl kapital rentabelligi (ROE)	20.9	12.2	47.4	29.6	9.1
Aktivlar rentabelligi (ROA)	9.2	4.9	18.4	11.6	4.2
Qarzdorlik koeffitsiyenti (jami majburiyatlarni jami aktivlardagi ulushi)	56.2	59.1	61.1	60.8	53.7
Majburiyatlarni xususiyl kapitalga nisbati (jami majburiyatlarni xususiyl kapitaldagi ulushi)	128.2	144.4	157.2	154.9	116.1

Masalan, 2020-yilda O'ztransgaz AJ 3,6 trln so'm zarar ko'rdi, ya'ni daromad hajmiga nisbatan ulkan yo'qotish. Natijada, kompaniyaning sof foyda marjasi manfiy bo'lib, beqaror moliyaviy holatni aks ettirdi. 2018–2019-yillarda ham kompaniya rentabelligi past bo'lib, ayrim yillarda juda past miqdorda foyda yoki hatto zarar bilan yakunlangan. Umuman olganda, O'ztransgaz AJ uchun sof foyda ulushi barqaror emas va salbiy tendensiyaga ega – yillar kesimida sezilarli tebranishlar va zararlar kuzatilgan.

Aksincha, O'zmetkombinat daromadlaridan olinadigan sof foyda ulushi ancha barqaror va ijobiydir. Masalan, 2018-yilda kombinat daromadining taxminan 7,3 %i sof foyda sifatida qolgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 6,7 % atrofida edi. 2020-yilda pandemiya ta'sirida sof foyda marjasi biroz pasayib ~4,2 %ni<sup>13</sup> tashkil etdi. Shunga qaramay, kompaniya har yili foyda bilan ishlashga erishgan – 2020-yilda ham 218,5 mlrd so'm sof foyda olgan. 2021-yilda esa ichki talab oshishi va operatsion samaradorlik tufayli sof foyda ulushi keskin o'sdi – kombinat 2020-yilgiga nisbatan qariyb 7 barobar ko'proq sof foyda (1,53 trln so'm) oldi<sup>14</sup>. Buning natijasida 2021-yilda sof foyda marjasi 17-18 %gacha chiqdi, ya'ni daromadning sezilarli qismi foyda sifatida shakllandi. Demak,

<sup>12</sup> <https://new.openinfo.uz/-sayti/ma'lumotlari>.

<sup>13</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

<sup>14</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

O'zmetkombinatning sof foyda ulushi yillar davomida ijobiy va nisbatan barqaror, 2020-yilgi qisqarishdan so'ng 2021-yilda rekord darajada oshgan.

Yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda har ikkala davlat korxonalari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi xulosalarni tizimlashtirish mumkin:

birinchidan, sof foyda hisobiga hisoblanadigan aktivlar rentabelligi va xususiy kapital rentabelligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi sezilarli tafovut avvalo, har ikkala korxonalarda qarz mablag'lari hisobiga ishlab chiqarishga avanslangan kapital shakllantirilayotganligidan dalolat beradi. Moliyaviy xo'jalik samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan moliyaviy dastak samarasini ta'minlash va qarzlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha moliyaviy xarajatlarni iqtisod qilish uchun qarz mablag'larini o'rtacha bozor qiymatidan past bo'lgan instrumentlar hisobiga diversifikatsiyalash maqsadga muvofiq;

ikkinchidan, asosiy faoliyat foydasining sof foydadagi past ulushi avvalo operatsion faoliyat bilan bog'liq xarajatlarni iqtisod qilishga yo'naltirilgan strategiyani ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunda asosiy fondlar ekspluatatsiyasi bilan bog'liq xarajatlarni minimallashtirish, Energiya sig'imi past fondlar bilan qurollanish darajasini oshirishga qaratilgan o'rta istiqbolga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo'yicha strategiyani ishlab chiqish tavsiya etiladi;

uchinchidan, ishbilarmon faollik ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida sotish bozorlarini diversifikatsiyalash va mahsulotlar eksport salohiyatini yaxshilashga yo'naltirilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Natijada, aktivlar aylanuvchanligini oshirish evaziga yuqori moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarini ta'minlashga erishiladi.

Moliyaviy modellar va moliyaviy samaradorlikni tahlil qilish usullari asosida bir nechta taxminlar tizimlashtirildi. Ushbu taxminlarga asoslanib, tadqiqotda ularni empirik ravishda tekshirish uchun tadqiqotning bir nechta gipotezalar yaratildi. Tadqiqotning konseptual doirasida hosil bo'lgan gipotezalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

$H_1$  – kapital tuzilishi davlat korxonalarining moliyaviy holatiga ijobiy va sezilarli ta'sir ko'rsatadi;

$H_2$  – davlat korxonalarining hajmi davlat korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlariga sezilarli va ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

$H_3$  – rentabellikning o'sishi davlat korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlariga sezilarli va ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

$H_4$  – kapital xarajatlar davlat korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlariga sezilarli va ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotchi mustaqil o'zgaruvchi ( $x$ ) bilan bog'liq o'zgaruvchi o'rtasidagi munosabatni tahlil qilish uchun chiziqli regressiya modelidan foydalanadi. Tadqiqot uchun tanlangan model quyidagilarni o'z ichiga oladi:

$$FE_{it} = \alpha_0 + \alpha_1 CS\_Leverage_{it} + \alpha_2 GSDI_{it} + \alpha_3 SOE\_Size_{it} + \alpha_4 PG_{it} + \alpha_5 CE_{it} + e_{it} \quad (1)$$

Bu yerda:

$FE_{it}$  – bir vaqtning o'zida  $t$  da  $i$  davlat korxonasining moliyaviy samaradorligi (*Altmanning Z-score modeli*);

$CS\_Leverage_{it}$  –bir vaqtning o‘zida  $i$  davlat korxonasining moliyaviy leverage  $t$ ;

$GSDI_{it}$  – davlat subsidiyasi bir vaqtning o‘zida  $i$  davlat korxonalari tomonidan  $t$ ;

$SOE\_Size_{it}$  – bir vaqtning o‘zida  $i$  DK hajmi  $t$ ;

$PG_{it}$  – bir vaqtning o‘zida  $i$  DK rentabelligining o‘sishi  $t$ ;

$CE_{it}$  – bir vaqtning o‘zida  $i$  DKning kapital xarajatlari  $t$ ;

$\alpha_o$  – doimiy;

$\alpha_1 \dots \alpha_5$  – koeffitsiyentlar;

$e_{it}$  – xato muddati.

Tadqiqot ishlab chiqarish, neft va gaz, tog‘-kon va metallurgiya, moliya, kimyo va neft-kimyo va xizmat ko‘rsatish sohalarini o‘z ichiga olgan turli sohalardan 10 ta DK tanlandi. Birinchi bosqichda ushbu tadqiqotda ishlatiladigan ma‘lumotlar to‘plamini tasvirlash uchun tavsiflovchi statistikani o‘tkazish kerak va bu 5-jadvalda tanlangan o‘zgaruvchilar uchun tavsiflovchi tahlil natijalarini aks ettiradi. Barcha qiymatlar nisbatlarda. 5-jadvalda 2020–2023-yillarda davlat korxonalarining ba‘zi g‘ayrioddiy ko‘rsatkichlarini kuzatish mumkin.

Birinchi, tanlangan davlat korxonalaridagi minimal moliyaviy leverage - 24,09 ni tashkil etdi, bu ba‘zi davlat korxonalari salbiy kapitalga ega bo‘lsa-da, o‘z operatsiyalarini qarzdin foydalangan holda moliyalashtirganligini ko‘rsatadi. Bu salbiy kapitalga ega bo‘lgan davlat korxonalari uchun juda xavfli.

## 5-jadval

### Tanlangan o‘zgaruvchilarning tavsiflovchi statistikasi<sup>15</sup>

	<i>Min.</i>	<i>Maks.</i>	<i>Median</i>	<i>Std. Dev.</i>
<i>FE</i>	-1,056	3,299	1,265	0,961
<i>CS_Leverage</i>	-24,092	9,896	1,560	5,836
<i>PG</i>	-5,295	3,882	0,115	1,860
<i>Milodiy</i>	-0,590	4,565	0,267	0,812
<i>DK_Size</i>	0,112	5,135	3,734	1,603

Ma‘lumotlarni tahlil qilishning ikkinchi bosqichida korrelyatsiya va VIF (Variance Inflation Factor) tahlili o‘tkazildi. Mustaqil o‘zgaruvchilar orasida multikollinearlik yo‘qligini aniqlash uchun statistik tahlilning ushbu ikkita usuli ishlatilgan. Multicollinearity tanlangan mustaqil o‘zgaruvchilarning nafaqat o‘zgaruvchiga bog‘liq, balki bir-biriga mukammal bog‘liqligini yoki bir-birini aniqlash uchun tanlangan ma‘lumotlarning ishonchliligi va haqiqiylikini tekshirish usuli sifatida tavsiflanadi<sup>16</sup>. Shuning uchun, multikollinearlikning mavjudligi ma‘lumotlarni tanlash sifatiga ta‘sir qiladi va noto‘g‘ri natijalarga olib kelishi mumkin.

Regressiya tahlili eng past t-statistikasi va ahamiyatli, qolgan uchta o‘zgaruvchi ijobiy va sezilarli darajada davlat korxonalarining moliyaviy

<sup>15</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

<sup>16</sup> Young, D. S. (2017). Handbook of regression methods. CRC Press, Boca Raton, FL, pp. 109-136.



ko'rsatkichlarini belgilaydi. Alohida mustaqil o'zgaruvchilar CS\_Leverage ( $t = 1.29$ ,  $p < 0.05$ ), PG ( $t = 1.41$ ,  $p < 0.05$ ) va DK\_size ( $p < 0.01$ ) FEning muhim prognozlari edi. Bundan tashqari,  $R^2$  0.337 ga teng edi, bu FE'dagi o'zgarishlarning 33,7 % uchta o'zgaruvchining o'zgarishi bilan belgilanishini ko'rsatadi.

## 6-jadval

### Koeffitsiyent jadvali iteratsiyasi 2 (tuzatilgan R-kvadrati = 0.337)<sup>17</sup>

	Coeff	SE	t-stat	Stand Coeff	p-qiymat
<i>b</i>	2.353531	0.320613	7.340715		
<i>CS_Leverage</i>	0.0298129	0.023048	1.293515	0.181124	0.0204071
<i>PG</i>	0.102661	0.072802	1.410144	0.19881	0.0167079
<i>SOE_Size</i>	-0.307171	0.07872	-3.902077	-0.512561	0.000400811

Regression tahlil natijalariga ko'ra quyidagi chiziqli regressiya tenglamasini tizimlashtirish mumkin:

$$FE = 2.353 + 0.029 CS\_Leverage + 0.102 PG - 0.307 DK\_Size \quad (2)$$

Chiziqli tenglama shuni anglatadiki, O'zbekistonda tanlangan davlat korxonalarining moliyaviy leverajining 1 foizga o'sishi ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini 0,029 foizga yaxshilashga olib kelishi mumkin. Bu davlat korxonalarining operatsion faoliyati haqida noyob tushunchalarni nazarda tutadi. Agar davlat korxonalari tomonidan loyihalar o'z kapitallari hisobidan moliyalashtirilsa, lekin qarzdin foydalanmasa, bu ularning moliyaviy ko'rsatkichlariga va samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, rentabellik o'sishining 1 foizga o'sishi davlat korxonasining moliyaviy ko'rsatkichlarining 0,1 foizga o'sishiga olib kelishi mumkin. Rentabellik moliyaviy o'sishning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi va shuning uchun sof foydaning o'sishi davlat korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlari samaradorligini oshirishga olib kelishi mumkin. Chiziqli regressiya modeliga ko'ra, davlat korxonalari hajmining 1 foizga o'sishi moliyaviy samaradorlikni 0,307 foizga pasayishiga olib keladi. Bu shuni ko'rsatadiki, davlat korxonalari hajmi kattalashib borar ekan, ular foyda olish uchun resurslardan samarali foydalanish va turli xil xarajatlarni, shu jumladan, operatsion va ma'muriy xarajatlarni nazorat qila olmasliklari nuqtayi nazaridan kamroq samarador bo'ladi.

## 7-jadval


### “O'zmetkombinat” AJ va “O'ztransgaz” AJ korxonalarining 2025–2028-yillar hisobiga moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari prognozi

Yillar	“O'zmetkombinat” AJ moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichi (Z-score)	“O'ztransgaz” AJ moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichi (Z-score)
2025	2,6756	1,2756
2026	2,7106	1,2815
2027	2,7456	1,2874
2028	2,7806	1,2933

<sup>17</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi. (<https://www.statskingdom.com/>)

“O‘ztransgaz” AJ va “O‘zmetkombinat” AJ korxonalari bo‘yicha tuzilgan ko‘p omilli ekonometrik modellar asosida 2025–2028-yillarga amalga oshirilgan prognoz natijalari quyidagi 7-jadvalda keltirilgan.

Prognoz davrida “O‘zmetkombinat” AJ va “O‘ztransgaz” AJ korxonalarining moliyaviy samaradorligi ko‘rsatkichlari o‘shish tendensiyasiga ega ekan. 2028-yilda 2024-yilga nisbatan “O‘zmetkombinat” AJda moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichi o‘rtacha 1,053 barobarga ortishi kuzatilmoqda. Mazkur davrda “O‘ztransgaz” AJda moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichi o‘rtacha 1,02 barobarga ortishi kuzatilmoqda (7-rasm).



**7-rasm. “O‘zmetkombinat” AJ va “O‘ztransgaz” AJ korxonalarining 2025-2028-yillar hisobiga moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari prognozi**


Dissertatsiyaning “**Davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni boshqarishning funksional elementlarini takomillashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida Davlat korxonalari moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirish bilan bog‘liq muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari hamda davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirishning istiqbolli yo‘llari bo‘yicha taklif va amaliy tavsiyalar tizimlashtirilgan.

Xususiylashtirish jarayoniga qaramay, davlat korxonalari O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynab kelmoqda. 2020–2023-yillarda ularning YaIMdagi ulushi 28 %dan 30 %gacha yetgan. Hukumat tomonidan davlat ishtirokini kamaytirish va xususiy sektorni rag‘batlantirish orqali raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida davlat korxonalarining sonini 75 yil ichida 4 foizga qisqartirish rejalashtirilgan. Mamlakatdagi 599 ta aksiyadorlik jamiyatining 42 foizida davlat ulushi mavjud bo‘lib, jami aksiyalarning 84 foizi davlatga tegishli. Aholi aksiyalarining atigi 2 foiziga egalik qiladi, bu esa aksiyadorlik kapitalining yetarli diversifikatsiya qilinmaganini ko‘rsatadi.

OECD standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillari 114 ta davlat korxonasida joriy etildi, 27 tasida esa rahbarlar ochiq tanlov asosida saylanmoqda. Bu jarayon boshqaruv vakolatlarini



detsentralizatsiya qilish va rahbarlarni shaffof tanlash orqali mehnat jamoalarining motivatsiyasini oshirmoqda. Ilg'or xalqaro tajriba asosida ERP tizimi kabi korxona resurslarini boshqarish yechimlari, xususan, O'ztransgaz va O'zmetkombinatda joriy etilib, moliyaviy samaradorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda. ERP tizimi barcha ichki biznes jarayonlarni yagona raqamli platformada integratsiyalaydi, bu esa boshqaruvni optimallashtirish va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.



**8-rasm. Moliyaviy-xo'jalik tizimi samaradorligini boshqarishda integrallashgan axborot tizimlari<sup>18</sup>**

ERP tizimi real vaqt rejimida moliyaviy-xo'jalik axborotlarini yangilab, boshqaruv qarorlarini tezkor va asosli qabul qilish imkonini beradi. CRM tizimi esa xizmat sifati va daromadni oshirish orqali moliyaviy samaradorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatib, mijozlar haqidagi iqtisodiy ma'lumotlarni yagona platformada jamlaydi hamda shaxsiylashtirilgan qarorlarni ishlab chiqishni ta'minlaydi.




**9-rasm. Davlat korxonalari moliyaviy samaradorligini oshirishning umumiy iqtisodiy omillari<sup>19</sup>**

<sup>18</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

<sup>19</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

BI tizimi korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilish, boshqaruv sifatini oshirish va xavflarni kamaytirish imkonini yaratadi. O'zbekiston davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni oshirishda ERP, CRM va BI kabi raqamli texnologiyalarning joriy etilishi muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.

Tashqi bozorlarga moslashish va ichki samaradorlikni oshirish uchun korxonalar boshqaruvida innovatsion yondashuvlar, xususan raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, axborot tizimlari, strategik rejalashtirish va ichki audit tizimlarining joriy etilishi muhimdir. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun esa aniq byudjetlashtirish, risklarni boshqarish, investitsiya salohiyatini kengaytirish va qarzdorlikni kamaytirish zarur bo'lib, bu foyda marjinalligi va samaradorlik ko'rsatkichlarini oshiradi. Davlat korxonalari samaradorligini oshirishda xususiy sektor bilan strategik hamkorlik va ehtiyojga qarab qisman xususiylashtirish raqobatbardoshlikni kuchaytiradi hamda innovatsiyalarni joriy etish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan innovatsion yechimlar va texnologiyalarni tatbiq etish, shuningdek, xalqaro bozorlarga chiqish salohiyatini oshirish davlat korxonalarining moliyaviy samaradorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Davlat korxonalarining moliyaviy samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish istiqbollari quyidagi yo'nalishlarga qaratilishi mumkin:



**10-rasm. Zamonaviy moliyaviy boshqaruvni joriy qilish orqali davlat korxonalari moliyaviy samaradorligini oshirish instrumentlari<sup>20</sup>**

Zamonaviy boshqaruv tizimlari doirasida strategik rejalashtirish jarayonlarini optimallashtirish, uzoq muddatli maqsadlar va rivojlanish strategiyalarini ishlab

<sup>20</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

chiqish, shuningdek, moliyaviy risklarni aniqlash va boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish davlat korxonalarining barqarorligini ta'minlaydi.

Korporativ boshqaruvni isloh qilishda mustaqil nazorat organlari, professional boshqaruv kadrlarini jalb etish va shaffof qaror qabul qilish mexanizmlarini joriy etish orqali korxona boshqaruvining ishonchliligi va samaradorligi oshiriladi. Boshqaruvning ushbu zamonaviy shaklini joriy qilish nafaqat moliyaviy samaradorlikni oshirishga, balki davlat korxonalari investitsion jozibadorligini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi.


Zamonaviy moliyaviy monitoring va hisobot tizimlarini joriy etish, ichki auditni mustahkamlash orqali moliyaviy ko'rsatkichlarni doimiy nazorat qilish, samarali byudjetlashtirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash davlat korxonalarining moliyaviy samaradorligini oshiradi.

Ushbu istiqbollarga asoslanib, davlat korxonalari o'z boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilib, moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va investitsiyalarni samarali boshqarish orqali milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashi kutilmoqda.

Davlat korxonalari moliyaviy-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini ta'minlash va uni tizimli boshqarishda samaradorlikning tayanch ko'rsatkichlarini tizimlashtirish va uni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. 2022-yil ikkinchi yarim yilligidan boshlab Xalqaro valyuta jamg'armasi texnik ko'magida ishlab chiqilgan metodologiyaga muvofiq yirik davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy holati baholab borilmoqda. Lekin ushbu ko'rsatkichlar moliyaviy holatni real ifodalovchi ko'rsatkichlar hisoblansa-da, ular orqali samaradorlikni tayanch ko'rsatkichlari (KPI) orqali baholash va boshqarishning yaxlit tizimini shakllantirish orqali tizimli moliyaviy boshqaruvga ehtiyoj mavjuddir.

Shunga asoslangan holda davlat korxonalari uchun KPI tizimini joriy qilish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni tizimlashtirish mumkin.

Avvalo KPI tizimining umumiy maqsadi va vazifalar kompleksini tizimlashtirish talab qilinadi.




**11-rasm. KPI tizimining bosh maqsadi va vazifalari<sup>21</sup>**

<sup>21</sup>Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

KPI tizimining bosh maqsadi davlat korxonalari moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligini uning strategik rivojlanish maqsadlari vektoriga muvofiq baholash, monitoring qilish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan tavsiyalarni tizimlashtirishdan iborat. Shunga asoslangan holda vazifalar belgilanib, umumiy moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligini baholashning 4 asosiy vazifalari asosida faoliyatni tashkil qilinishi maqsadga muvofiq.

KPI tizimini samarali tashkil qilish bir qator mantiqiy ketma-ketlikdagi bosqichlarni o‘z ichiga olishi zarur. Uni samarali tashkil qilish maqsadidagi mantiqiy ketma-ketlikdagi bosqichlarni quyidagi tarzda tavsiya etiladi (12-rasm).



**12-rasm. KPI tizimini tashkil qilishning mantiqiy ketma-ketligi iyerarxik tuzilmasi modeli<sup>22</sup>**

Moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligini baholashning KPI tizimini tashkil qilish bosqichlarida strategik maqsadlarni aniqlash va imkoniyatlarni baholash muhim o‘rin tutib bunda korxonaning umumiy maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari belgilab olinadi. KPIning asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlashda faoliyatning spetsifik yo‘nalishlari hisoblangan moliyaviy, operatsion, innovatsion va ijtimoiy ko‘rsatkichlar aniqlanadi. Navbatdagi bosqichda moliyaviy-iqtisodiy tavsifdagi ko‘rsatkichlarni hisoblash uslubiyati va ularning integrallashgan ball reytinglari ishlab chiqiladi. Ma’lumotlarni jamlash va kompleks monitoring tizimini tashkil qilish KPI samaradorligining asosiy mezoni hisoblanadi. Chunki ushbu tizim korxonalarga strategiyalarni aniqlab bermaydi. Balki mavjud strategiyani o‘rganib, uni realizatsiya qilish imkoniyatlarini baholab beradi. Pirovard oxirgi bosqichda natijalar kompleks tahlil qilinib, xulosalar umumlashtirilib hamda tavsiyalar tizimlashtiriladi.

<sup>22</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

## XULOSA

O'zbekiston davlat korxonalarida moliyaviy samaradorlikni boshqarish va baholash mexanizmini takomillashtirishni tadqiq qilish va amaldagi holatini kompleks baholashga yo'naltirilgan ushbu tadqiqot ishida quyidagi xulosalar tizimlashtirildi:

1. Davlat korxonalarining moliyaviy samaradorligini boshqarish ko'rsatkichlari tizimi nafaqat an'anaviy moliyaviy indikatorlar majmuasidan iborat, balki u davlatning strategik vazifalari, ijtimoiy mas'uliyat va ekologik barqarorlik kabi qo'shimcha o'lchovlarni ham o'z ichiga olishi kerak. Ushbu tizimning o'ziga xos xususiyatlari – strategik moslik, integratsiyalashgan tahlil, doimiy monitoring va benchmarking orqali baholash, shuningdek, qisqa va uzoq muddatli ko'rsatkichlarni uyg'unlashtirish – davlat korxonalarini faoliyatining yanada shaffof va samarali boshqarilishini ta'minlaydi.

2. O'zbekiston respublikasi iqtisodiyoti tarmoqlarida faoliyat olib boruvchi Davlat korxonalarining milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishida roli juda yuqori bo'lsa-da, ularning moliyaviy samaradorligi va investitsion jozibadorligi nisbatan pastligicha qolmoqda. Statistika shuni ko'rsatadiki, sohalar bo'yicha korxonalar sonining sezilarli o'sishi (ayniqsa, kichik tadbirkorlik subyektlari) mavjud, biroq yirik davlat korxonalarida samaradorlik, rentabellik va moliyaviy barqarorlik bo'yicha kuchli ichki tafovutlar kuzatilayotganligi aniqlandi.

3. Tahlillar shuni aniq ko'rsatadiki, ba'zi korxonalar (masalan, "O'ztransgaz" AJ) yuqori zarar ko'rsatkichlari, past darajadagi aktivlar va xususiy kapital rentabelligi (ROE, ROA) bilan ajralib turadi. Bu holat korxonalar boshqaruvi va investitsion strategiyalarni qayta ko'rib chiqish zarurligini bildiradi. Umuman, barcha davlat korxonalarida ham iqtisodiy o'sish muvozanatlashgan moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarini ta'minlash yuzasidan tizimli tavsifga ega bo'lmayotganini ko'rishimiz mumkin.

4. Davlat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy barqaror faoliyatining ijtimoiy komponentlari hisoblangan (i) bandlik, (ii) byudjet daromadlari va (iii) mintaqaviy muvozanatli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash muhim bo'lsa-da, ularning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi bilan bog'liq tizimli va tarkibiy muammolar Respublikaning barqaror rivojlanishidagi muammolarning kuzatilishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, davlat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotining umumiy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

5. Investitsion salohiyatni oshirish strategiyalari. Tadqiqot natijalari asosida, davlat korxonalarida investitsion jozibadorlikni oshirish uchun ichki moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va tashqi investitsiyalarni jalb etish strategiyalari ishlab chiqildi. Shu bilan birga, davlat kafolati ostidagi qarzlar miqdorini kamaytirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

6. Davlat korxonalaridagi korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlariga moslashtirish maqsadga muvofiq. Davlat korxonalarida korporativ boshqaruvni modernizatsiya qilish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish va bozor mexanizmlariga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini joriy etish ilmiy-amaliy

yangilik sifatida taqdim etildi. Bu yo‘nalishda innovatsion yechimlar va boshqaruv tizimining takomillashtirilishi katta ahamiyatga ega.

7. Davlat korxonalari moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirish bilan bog‘liq muammolarga ta’sir etuvchi omillar sifatida: umumiy iqtisodiy, institutsional va moliyaviy omillarni tizimlashtirish mumkin. Ushbu omillar turli darajada ta’sir etsada, ularni hal qilishga yo‘naltirilgan adekvat mexanizmni shakllantirish davlat korxonalari moliyaviy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirishga shart-sharoit yaratadi.

8. Korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilash uchun aniq byudjetlashtirish, risklarni boshqarish, investitsiya salohiyatini oshirish va qarzdorlik darajasini pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar qo‘llanishi lozim. Bu o‘z navbatida korxonalarining foyda marjinallarini oshirish va samaradorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga olib keladi. Ma’lumki, davlat korxonalariga berilayotgan imtiyoz va preferensiyalar tizimi va ular tomonidan davlatning tijorat hamda notijorat maqsadlarini bajarish mexanizmi yetarli darajada shaffof emas.

9. Zamonaviy boshqaruv tizimlari doirasida strategik rejalashtirish jarayonlarini optimallashtirish, uzoq muddatli maqsadlar va rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, shuningdek, moliyaviy risklarni aniqlash va boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish davlat korxonalarining barqarorligini ta’minlaydi.

10. Korporativ boshqaruvni isloh qilishda mustaqil nazorat organlari, professional boshqaruv kadrlarini jalb etish va shaffof qaror qabul qilish mexanizmlarini joriy etish orqali korxona boshqaruvining ishonchliligi va samaradorligi oshiriladi.

11. Dissertatsion tadqiqotda KPI tizimini tashkil qilishning mantiqiy ketma-ketligi iyerarxik tuzilmasi modeli taklif qilingan. Ushbu model O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan davlat korxonalari moliyaviy faoliyati samaradorligini baholashda KPI tizimini joriy qilish va samarali boshqaruv mexanizmlarini yo‘lga qo‘yishda muhim uslubiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. KPIlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi korxonalarining samaradorligini oshirishga va uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ, СОЗДАННЫЙ НА ОСНОВЕ  
НАУЧНОГО СОВЕТА DSc.03/30.12.2020.I.16.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**КАРШИЕВ НОДИРБЕК ОЛИМ УГЛИ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ  
ФИНАНСОВОЙ ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ ГОСУДАРСТВЕННЫХ  
ПРЕДПРИЯТИЙ**

**08.00.13-Менеджмент  
08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**Диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Ташкент – 2025**



Тема диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2025.1.PhD/Iqt5243.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете  
Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.tsue.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

**Научный руководитель:** Эшов Мансур Пулатович  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Гафуров Убайдулло Вахабович  
доктор экономических наук, профессор

Уктамов Хусниддин Фахриддинович  
доктор философии (PhD) по экономическим наукам, доцент

**Ведущая организация:** Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании ученого совета за номером DSc.03/30.12.2020.I.16.02 при Ташкентском государственном экономическом университете 26 08 2025 года. Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирован под номером 1720). Адрес: 100003, город Ташкент, улица Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz

Автореферат диссертации распространен «8» 08 2025 года.  
(Выписка из реестра № 35 от «7» 08 2025 года).



**Г.К. Абдурахманова**  
Председатель Разового Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**О.Дж. Джурабаев**  
Секретарь Разового Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**Ш.А. Аллаяров**  
Председатель научного семинара При Разовом Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор



## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации на соискание степени доктора философии (PhD))**

### **Актуальность и необходимость темы диссертации.**

В условиях мировой экономики совершенствование системы управления финансовой эффективностью в государственных предприятиях играет важную роль в обеспечении высокой финансовой устойчивости, эффективном использовании государственных активов и повышении конкурентоспособности.

Действительно, внедрение современных механизмов управления — в частности, ориентированного на результат бюджетирования, оптимизации расходов и инструментов финансового анализа — позволяет повысить прозрачность и подотчётность в деятельности государственных предприятий.

Таким образом, рост финансовой эффективности оказывает не только прямое положительное влияние на эффективность национальной экономики, но также способствует повышению инвестиционной привлекательности и социальной стабильности.

Несмотря на продолжающиеся по всему миру процессы приватизации, государственные предприятия продолжают доминировать во многих секторах в Азии, Европе и Латинской Америке.

Согласно данным Организации экономического сотрудничества и развития, в 45 странах насчитывается более 3000 государственных предприятий, с общей стоимостью капитала около 3 триллионов долларов, которые в 2024 году обеспечат занятость для более чем 10 миллионов человек.

В связи с этим во многих странах совершенствование системы управления финансовой эффективностью государственных предприятий остаётся актуальной задачей.

В мировой практике в качестве приоритетных направлений научных исследований по совершенствованию системы управления финансовой эффективностью государственных предприятий признаются: внедрение стандартов корпоративного управления, разработка методологий оценки эффективности на основе финансовых показателей, автоматизация финансовой отчётности с применением цифровых технологий, а также изучение механизмов расширения государственно-частного партнёрства.

Наряду с этим, в центре научных изысканий находятся вопросы обеспечения эффективного использования ресурсов, трансформации убыточных предприятий и оценки результатов деятельности на основе критериев результативности и эффективности. Подобные исследования способствуют созданию прозрачных и действенных моделей управления государственной собственностью.

В Узбекистане государственные предприятия играют исключительно важную роль в национальной экономике и выступают своеобразным «драйвером» предпринимательской деятельности, обеспечивая макроэкономическую стабильность и устойчивые темпы экономического

роста. Кроме того, данные субъекты предпринимательства не только являются «высокофискальным фактором» в формировании доходной части бюджетной системы, но и играют значительную роль в обеспечении занятости населения и росте его реальных доходов.

Однако в последние годы наблюдаются проблемы в анализе показателей финансовой эффективности государственных предприятий, связанные с высоким уровнем дебиторской задолженности из-за нарушений платёжной дисциплины, низкой рентабельностью активов вследствие высоких затрат на себестоимость, а также низкой рентабельностью собственного капитала на фоне высоких обязательств и налоговой нагрузки. Всё это оказывает негативное влияние на эффективность социально-экономических реформ в стране.

С целью снижения доли государственных предприятий в экономике, создания здоровой конкурентной среды для частного сектора и иностранных компаний, правительство Узбекистана активно приступило к приватизации государственных предприятий и сокращению вмешательства государства в экономику. В результате, в период с 2019 по 2023 годы количество государственных предприятий устойчиво снижалось.

Необходимость управления показателями финансовой эффективности, направленного на снижение убыточности и повышение рентабельности, а также обеспечения финансово устойчивого развития государственных предприятий определяет актуальность настоящего диссертационного исследования.

Указом Президента Республики Узбекистан от 21 февраля 2024 года № УП-37 «О государственной программе по реализации стратегии «Узбекистан-2030» в Год поддержки молодежи и бизнеса», от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О стратегии «Узбекистан-2030»», от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», от 8 апреля 2022 года № УП-101 «О дальнейшем улучшении предпринимательской среды и развитии частного сектора для создания условий устойчивого экономического роста», от 27 октября 2020 года № УП-6096 «О мерах по ускорению реформирования предприятий с государственным участием и приватизации государственных активов», от 14 мая 2019 года № УП-5718 «О мерах по коренному совершенствованию системы поддержки и защиты предпринимательской деятельности», от 24 апреля 2015 года № УП-4720 «О мерах по внедрению современных методов корпоративного управления в акционерных обществах», а также в других нормативно-правовых документах, регулирующих данную деятельность, предусмотрены задачи, для реализации которых в определенной степени служит данная диссертационная работа.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики — I. «Духовно-нравственное и культурно-

просветительское развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** Научно-теоретические и концептуальные основы повышения инвестиционной привлекательности предприятий с государственным участием за счёт совершенствования системы управления их финансовой эффективностью нашли своё отражение в ряде научных исследований зарубежных экономистов, таких как: А. Абрамов, Радыгин, Р. Энтов, М. Чернова, В. Айвазян, Й. Ге, Дж. Циу, А. Ассагаф, А. Лестари, М. Хамзах, С. Аднан, Н. Зайнал, Б. Нордин, Ф. Камарудин, Дж. Джохар, Г. Ахуджа, С. Маджумдар, Э. Альтман, Э. Астами, Г. Тауэр, Дж. Нейлсон, С. Боркович, П. Табак, К. Девентер, П. Малатеста, Р. Эллиотт, Й. Чжоу, Ф. Тагхизаде-Хесари, Й. Наюки, С. Ким, А. Морта и других<sup>23</sup>.

Развитию научных и практических основ управления финансовой эффективностью предприятий с государственным участием значительный вклад внесли ряд узбекистанских экономистов, в частности: С.С. Гулямов, О. Нарзиев, С. Сафаева, Ж. Жураев, А.У. Бурханов, А.В. Вахобов, Н.Х. Жумаев, Д.Р. Зайналов, О.К. Иминов, О.О. Олимжонов, Т.С. Маликов, Б. Хасанов, М.Б. Хамидуллин, Р.Х. Карлибаева, М.К. Пардаев, С.З. Шарипова, Б.Э. Ташмуродова, М.П. Эшов, С.Э. Элмурзаев, У. Убайдуллаев и другие<sup>24</sup>.

---

